



MILLIY ATLAS VA MILLIY BEQASAM KIIYIMLARI VA QADRIYATLARI

Talibova A. Y.

SamISI, Turizm kafedirasi Dotsent v.b.

Xushvaqtova Gulhayo Erkin qizi

TM-124 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19563883>

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi o'zbek xalqining milliy matolari – atlas va beqasamdan tikilgan o'zbek milliy liboslari, ularning turlari hamda milliy kiyimlar tizimidagi o'rnini keng yoritilgan. Ushbu matolar xalqimizning boy madaniy merosi, estetik qarashlari va an'analarini o'zida mujassam etgan muhim qadriyat sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Milliy atlas va beqasam kiyimlari, milliy matolar, naqsh va bezak, to'rttepkli atlas, sakkiztepkli atlas, Buxoro beqasami, Farg'ona beqasami.

Annotation: This thesis provides a comprehensive overview of Uzbek national garments made from traditional fabrics such as atlas and beqasam, highlighting their types and their role within the system of national clothing. These fabrics are analyzed as significant cultural values that embody the rich heritage, aesthetic perspectives, and traditions of the Uzbek people.

Keywords: National atlas and beqasam garments, traditional fabrics, patterns and ornaments, four-pointed atlas, eight-pointed atlas, Bukhara beqasam, Fergana beqasam.

Аннотация: В данной работе представлен широкий обзор типов узбекских национальных костюмов, изготовленных из атласа и бекасама, национальных тканей узбекского народа и их роли в системе национальной одежды. Эти ткани анализируются как важная ценность, воплощающая богатое культурное наследие, эстетические взгляды и традиции нашего народа.

Ключевые слова: Атласе и бекасам, национальные ткани, узоры и украшения, четырехточечный атлас, восьмиточечный атлас, Бухарский бекасам, Ферганский бекасам.

O'zbek xalqining milliy kiyimlari va matolari uning boy madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. Atlas va beqasam kabi ko'zni quvnatadigan, yorqin ranglari va takrorlanmas naqshlari bilan kishiga xush kayfiyat bag'ishlaydigan milliy liboslarda xalqimizning ming yillik o'tmishi, qadimiy urf-odat va an'analari, estetik qarashlari hamda o'ziga xos xususiyatlari mujassam.

An'anaviy o'zbek ayollar libosi xonatlasdan tikilgan ko'ylakning tunika o'xshash oddiy qirqimlari va guldordan iborat. Bayramona kiyimlarda atlas mato va boy oltin kashta ishlatiladi. Nikoh yoki xatna to'yida kelin-kuyov liboslari





hamda to'y bolasi kiyadigan liboslar alohida bo'lgan. Ayollarning milliy liboslari ichki, ustki va qishloq kiyimlaridan iborat. Ustki kiyimlar – kamzul, yengli xalat (mursak, kaltacha), yengsiz nimchalardir. Ayollarning o'ziga xos chopon shaklida bichilib tikilgan ustki kiyimi – mursak ilgari juda keng tarqalgan. Bu kiyimlarni tikishda atlas, adras va beqasam matolaridan keng foydalanilgan. Erkaklar uchun chopon, kamzul, belbog', ishton kabi kiyimlarda ham atlas va beqasam matolari ishlatilgan. Farg'ona vodiysida atlas matodan tikilgan ko'ylaklar keng tarqalgan.

Milliy libos – millat qiyofasi, inson ko'rki va milliy iftixor ifodasi hisoblanadi. Bu liboslarni yaratishda qadimdan shakllanib kelgan atlas, adras va beqasam matolarining o'rni juda katta. Usta hunarmandlarning mashaqqatli mehnati, qobiliyati va mahorati natijasida yaratilgan atlas, adras, beqasam kabi nafis matolar nihoyatda qadrlidir. Azaliy qadriyatlarimizni o'zida ifoda etgan ushbu go'zal matolar milliy boyligimiz sanaladi. Unda xalqimizning uzoq va shonli o'tmishi, qadimiy an'analari, estetik dunyoqarashi, didi va o'ziga xos xususiyatlari mujassam.

“Atlas” so'zi arab tilidan tarjima qilinganda “tekis, silliq” degan ma'noni anglatadi. U tanda ipi ham, arqoq ipi ham tabiiy ipakdan to'qiladigan bir yuzlama silliq mato hisoblanadi. Alohida ishlov berib atlasga jilo beriladi, shuning uchun u tovlanib turadi. Atlasning tabiiy ipakdan to'qilgani eng a'lo navi sakkiz tepkili xonatlas deb ataladi. Ilgari mato yuziga kudung urilgan, hozirgi kunda atlas issiq sathli baraban-kalandrdan o'tkaziladi. O'zbek atlaslari rang-barang nafis gullarga boy bo'lib, bu gullar bir-biri bilan uyg'unlashib matoda yaxlit go'zal naqsh hosil qiladi.

Atlasning to'qilish jarayoni: to'rt tepkili atlas to'rt tepkili dastgohda, sakkiz tepkili atlas sakkiz tepkili dastgohda to'qiladi. Tandaga gulalar tandaning har sakkiz naxi to'qilishida ustma-ust keladigan qilib ko'tariladi, naxlar tepkilarga muvofiqlashtirilib, gulalar o'ynagichlarga ulanadi. Tepki bosilganda guladan biri pastga tortilib, ustma-ust yotgan naxlardan biri ochiladi va orasidan arqoq ipi o'tadi. Shu tariqa sakkiz nax orasiga sakkiz arqoq ipi ustma-ust tushib, tanda ipi matoning ustiga joylanib, to'qima bir yuzlamaga aylanadi.

Shuningdek, ipak matolari orasida eng mashhurlari abrli atlas va xonatlasdir. Ularning o'ziga xosligi – bezak va gullar matoga emas, balki o'rish ipining o'ziga chiziladi. Masalan, uzunligi 200 metr, eni 40 santimetr atlasni to'qish uchun 3 ming 600 ta ipak to'lani uyg'unlashtirish lozim. Bitta tola uzilsa ham mahsulot sifatiga putur yetadi. Shu bois matoga yangi element qo'shish juda qiyin. Atlasdan ayollar liboslari, ko'rpa, ko'rpacha, erkaklar kiyimlari va boshqa buyumlar tikiladi. Adrasdan esa ayollar kiyimlari bilan birga chopon, ko'rpa, ko'rpacha





tikiladi. Bugungi kunda hunarmandlarimiz tomonidan qadimiy namunalar asosida ishlab chiqarilayotgan “O‘zbekiston go‘zali”, “Marg‘ilon”, “Bibixonim”, “Begoyim”, “Kelinchak atlas”, “Bargi karam”, “Nomozshomgul”, “Guldasta”, “Navro‘z”, “Qo‘chqorshox” kabi ipak matolar dunyo miqyosida e‘tirofga sazovor.

Beqasam – yo‘l-yo‘l gulli pishiq mato bo‘lib, tanda ipi ipak, arqog‘i ipdan to‘qiladi. Arqoq ipi tanda ipidan yo‘g‘onroq bo‘lgani uchun mato yuzasida ko‘ndalang chiziqlar hosil bo‘ladi. To‘qish jarayonida arqoq ipi ho‘llanib turiladi. Maxsus ishlov berib kundunglangandan so‘ng beqasamning bir tarafi atlasdek silliq, bir tarafi tovlanib turadi. Oldindan bo‘yalgan tanda iplar ishlatilishi natijasida beqasam ikki tomonlama rang-barang bo‘ladi. O‘rta Osiyoning yirik ipakchilik markazlarida ishlab chiqarilgan beqasamlar qalin-yupqaligi, mato enining tor-kengligi, rang tanlovi va yo‘l-yo‘l gullar tartibi jihatidan farq qiladi.

Buxoro va Samarqand beqasamlarining arqoq ipi yo‘g‘on, mujassamoti markazi oddiy me‘yorda takrorlanuvchi keng yo‘llardan iborat bo‘lib, qirg‘og‘i hoshiya yo‘llar bilan bezatilgan. Bundan tashqari “zanjira” gullar, abr nusxa yoki turli kvadrat, chiziqcha, mayda gullar qo‘shib bezatilgan. Farg‘ona vodiysi beqasamlari yupqa va mayin bo‘lib, asosan sovuq feruza va binafsha ranglardan iborat. Namangan “oq beqasamlari” oq, sariq, yashil tuslarda to‘qilgan. Namangan, Marg‘ilon, Qo‘qon to‘qimachilik fabrikalarida beqasamning oq, chiviq, olti katak, marmar va boshqa turlari ishlab chiqariladi. Beqasamdan to‘n, kamzul, ko‘ylak, ko‘rpacha va boshqa kiyim-kechaklar tayyorlanadi.

Milliy matolarimiz yaratilish tarixi olis o‘tmishga borib taqaladi va butun dunyoga mashhurdir. Xususan, 1967-yilda Monreal (Kanada)da o‘tkazilgan xalqaro ko‘rgazmada, 1978-yilda Yugoslaviyaning Zagreb shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro yarmarkada oltin medal bilan mukofatlanagan. Toshkent Modellar uyida xonatlasdan tikilgan kiyimlar 1970-yilda Yaponiyada (Osaka), 1987-yilda Budapesht kuzgi yarmarkasida, 1988-yilda Hindiston (Dehli)da, 1998-yilda AQSHning Vashington va 1999-yilda Chikago shaharlarida namoyish etilgan.

Milliy matolarni targ‘ib qilishni kuchaytirish. Atlas va beqasam matolar asosida tayyorlangan liboslarni ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va moda ko‘rgazmalari orqali keng tanishtirish zarur.

Zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashtirish. Dizaynerlar tomonidan atlas va beqasamdan zamonaviy uslubdagi kiyimlar yaratilib, yoshlar orasida ommalashtirishi lozim.

Hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash. Atlas va beqasam to‘qish bilan shug‘ullanuvchi ustalarni moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish, ularning faoliyatini rivojlantirish muhim.





Turizm bilan bog'lash. Milliy matolar asosida suvenirilarishlab chiqarish va turistlarga taklif qilish orqali ularni jahon miqyosida tanitish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Samarov. X.Q. Turizm da madaniy meros va qadriyatlar. Darslik. Toshkent-2026.
2. Abdurahmonov H, Rashidov Sh . O'zbek milliy liboslar tarixi-Toshkent :Fan va texnologiya , 2018
3. Qosimov M. O'zbek xalqi an'anaviy kiyimlari. -Toshkent O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015.
4. Karimova D. O'zbek xalq amaliy san'ati va milliy liboslari – Buxoro:Buxoro nashriyoti- 2017.
- 5.O'zbekiston Milliy axborot agentligi - <https://uza.uz>
- 6.Ningbo MH - <https://uz.mh-chine.com>
- 7.Oyina uz - <https://oyina.uz>
- 8.UZA.uz - <https://uza.uz>
- 9.UzPedia- <https://uzpedia.uz>
- 10.ResearchGate - <https://www.researchgate.net>

